

KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINING KO'P OMILLI EKONOMETRIK TAHLILI

Nazarov Nazar G'ulom o'g'li

Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti doktoranti, PhD

ORCID: 0009-0007-2599-8769

E-mail: nazarbek.2728@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning hozirgi holati va davlat tomonidan kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Buxoro viloyatidagi 1001 ta kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligi ko'p omilli ekonometrik modellar orqali tahlil qilingan. Tadqiqot natijalaridan kichik va o'rta biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalaridan O'zbekistonda kichik va o'rta biznes faoliyatini rivojlantirish uchun davlat dasturlarini hamda Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznes subyektlaridan qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: kichik va o'rta biznes, iqtisodiy samaradorlik, diversifikatsiya, ko'p o'zgaruvchili regressiya, modernizatsiya

Аннотация

В данной статье анализируется текущее состояние малого и среднего бизнеса в экономике Узбекистана и меры, принимаемые государством для развития малого и среднего бизнеса. Экономические показатели 1001 предприятия малого и среднего бизнеса в Бухарской области также были проанализированы с использованием многофакторных эконометрических моделей. По результатам исследования были разработаны научные предложения и рекомендации для повышения экономической эффективности малого и среднего бизнеса. Результаты исследования могут быть использованы при разработке государственных программ развития малого и среднего бизнеса в Узбекистане и программ поддержки малого и среднего бизнеса в Бухарской области.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, экономическая эффективность, диверсификация, многофакторная регрессия, модернизация.

Abstract

This article analyzes the current state of small and medium-sized businesses in the economy of Uzbekistan and the measures being taken by the state to develop small and medium-sized businesses. The economic performance of 1,001 small and medium-sized businesses in the Bukhara region was also analyzed using multi-factor econometric models. From the results of the study, scientific proposals and recommendations have been developed to improve the economic efficiency of SMEs. The results of the study can be used to develop state programs for the development of

small and medium-sized businesses in Uzbekistan and programs to support small and medium-sized businesses in the Bukhara region.

Keywords: small and medium-sized businesses (SMEs), economic efficiency, diversification, multiple regression, modernization.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishda kichik va o'rta biznes subyektlarining o'rni beqiyosdir. Buxoro viloyati ham mamlakatning tarixiy, turistik, sanoat va qishloq xo'jaligi salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri bo'lib, unda faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining natijadorligi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki ularning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishdagi hissasi bilan ham belgilanadi.

O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator davlat dasturlari va islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan ularning moliyalashtirish manbalariga bog'liqdir. Tadqiqotda moliyalashtirish manbalari sifatida davlat mablag'lari, lizing, o'z mablag'lari, qarz mablag'lari, sherikchilik asosidagi investitsiyalar hamda xalqaro moliyalashtirish manbalari ko'rib chiqiladi. Davlat mablag'lari tadbirkorlikni rag'batlantirish va ustuvor loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkonini bersa, lizing mexanizmlari ishlab chiqarish vositalarini yangilashga xizmat qiladi. O'z mablag'lari korxonaning moliyaviy mustaqilligini ifodalasa, qarz mablag'lari va xalqaro moliyalashtirish manbalari biznesni kengaytirish uchun qo'shimcha resurslar yaratadi. Sherikchilik asosidagi investitsiyalar esa tavakkalchilikni taqsimlash va yangi imkoniyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiy samaradorligini baholashda ijtimoiy omillar ham muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda ijtimoiy muammolar kategoriyasi tarkibida ijtimoiy kafolatlar, ish haqi barqarorligi, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi hamda xodimlarning mehnat huquqlari masalalari o'rganiladi. Mazkur omillar korxonalarda inson kapitalidan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish va xodimlarning motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mehnat sharoitlarining yaxshilanishi va xodimlar huquqlarining ta'minlanishi korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyalashtirish manbalari, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq omillar asosida iqtisodiy samaradorligini baholash hududiy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish va tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish Oʻzbekistonda iqtisodiy oʻsishni jadallashtirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish va hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududlarda tadbirkorlik faolligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Mazkur strategik yoʻnalishlar kichik va oʻrta biznes subyektlari iqtisodiy samaradorligini ilmiy baholash zaruratini kuchaytiradi.

Kichik va oʻrta biznesni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash, kreditlash tizimini takomillashtirish, investitsiyalarni ragʻbatlantirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillari sifatida eʼtirof etilgan [2]. Ushbu yondashuv korxonalar faoliyatini kompleks baholashning ilmiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Milliy Statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, soʻnggi yillarda kichik va oʻrta biznesning yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi va bandlikdagi ulushi izchil ortib bormoqda. Hududlar kesimida korxonalarning iqtisodiy natijalari va samaradorlik darajasida farqlar saqlanib qolayotgani ularni ekonometrik usullar yordamida baholash zarurligini koʻrsatadi [3].

Iqtisodiyot va moliya vazirligining hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha hisobotlarida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish va boshqaruv sifatini yaxshilash kichik va oʻrta biznesning barqaror rivojlanishini taʼminlovchi asosiy omillar sifatida baholangan [4].

Porter korxonalarning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligi raqobat ustunligini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish va bozor strategiyasini toʻgʻri tanlash bilan bogʻliqligini asoslagan. Muallifning raqobat ustunligi konsepsiyasi korxonalar faoliyatini iqtisodiy natijalar asosida baholashning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi [5].

Nazarov erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yuritayotgan biznes subyektlarini statistik tahlil qilish orqali korxonalar samaradorligini baholashda ekonometrik usullardan foydalanishning amaliy ahamiyatini koʻrsatgan. Tadqiqotda statistik koʻrsatkichlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi asoslab berilgan [6].

Stiglitz va Weiss nomukammal axborot sharoitida kredit resurslaridan foydalanish mexanizmlarini tahlil qilib, moliyalashtirish imkoniyatlari korxonalar faoliyati va iqtisodiy natijalariga bevosita taʼsir koʻrsatishini ilmiy asoslagan. Ushbu yondashuv kichik va oʻrta biznesning moliyalashtirish manbalarini iqtisodiy samaradorlik omili sifatida baholashda muhim nazariy ahamiyatga ega [7].

Nazarovning keyingi tadqiqotlarida innovatsion va investitsion faoliyatni rivojlantirish korxonalarning iqtisodiy natijadorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholangan. Muallif innovatsion rivojlanish va investitsion faollik oʻrtasidagi bogʻliqlikni statistik tahlillar asosida yoritgan [8].

Jahon banki hisobotlarida kichik va o'rta biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kreditlash tizimini rivojlantirish va institutsional muhitni takomillashtirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omillar sifatida qayd etilgan [9]. Mazkur tavsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (UNDP) inson kapitalini rivojlantirish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish korxonalarning barqaror faoliyatini ta'minlovchi asosiy omillar ekanligini ta'kidlagan. Hisobotda iqtisodiy va ijtimoiy omillarni birgalikda baholash zarurligi qayd etilgan [10].


OECD tadqiqotlarida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, kapital bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash korxonalar samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlari sifatida baholangan. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda ko'p omilli ekonometrik yondashuvlardan foydalanish boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligini kuchaytirishi ta'kidlangan [11].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda Buxoro viloyatidagi kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida ko'p o'zgaruvchili regressiya tahlili (Multivariate Regression Model - MVREG) usulidan foydalanildi. Tahlil jarayonida moliyalashtirish manbasi, iqtisodiy muammo va ijtimoiy muammo bog'liq o'zgaruvchilar sifatida tanlandi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa biznes yuritish samaradorligi, tashkil etilgan yil, tadbirkorning yoshi, ta'lim yillari va ishchilar soni kiritildi. Dastlab ma'lumotlarning tavsifiy statistikasi, taqsimoti va o'zaro bog'liqligi o'rganildi, so'ngra Stata 17.0 dasturi yordamida MVREG modeli baholandi. Modelning mosligi F-statistika, R^2 koeffitsiyenti va p-qiymatlar orqali tekshirildi hamda omillarning ta'sir darajasi regressiya koeffitsiyentlari asosida izohlandi. Mazkur metodologik yondashuv kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq muammolarini kompleks ravishda baholash va ularning biznes samaradorligiga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR


1-rasmda Buxoro viloyatidagi kichik va o'rta biznes subyektlarining biznes yuritish samaradorligi turli moliyalashtirish manbalari va respondentlarning jinsi bo'yicha taqqoslangan. Natijalarga ko'ra, biznes samaradorligi ko'rsatkichlari asosan 50-100 ball oralig'ida jamlangan bo'lib, ayrim holatlarda 10-30 ball darajasidagi past qiymatlar ham uchraydi. Davlat mablag'lari va lizing asosida moliyalashtirilgan korxonalarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi samaradorlik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lib, median qiymatlar taxminan 65-80 ball oralig'ida joylashgan. O'z mablag'lari hisobidan faoliyat yuritayotgan subyektlarda samaradorlikning tarqalish diapazoni kengroq tarqalmoqda.



1-rasm. Moliyalashtirish manbalari va gender kesimida biznes yuritish samaradorligining taqsimlanishi¹

Sherikchilik, qarz va xalqaro moliyalashtirish manbalari bo'yicha ham samaradorlikning sezilarli farqlanishi kuzatiladi. Xalqaro moliyalashtirishdan foydalanuvchi subyektlarda samaradorlik ko'rsatkichlari asosan 60-95 ball oralig'ida shakllangan bo'lib, ayrim korxonalarda 100 ballga yaqin natijalar qayd etilgan. Qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan korxonalarda esa tarqalish keng bo'lib, ko'rsatkichlar 20 balldan 100 ballgacha o'zgaradi, bu esa kredit mablag'laridan foydalanish samaradorligi korxona boshqaruvi sifatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Erkak va ayol tadbirkorlar o'rtasidagi farqlar katta emas, biroq ayrim moliyalashtirish manbalarida erkaklar guruhida dispersiya yuqoriroq kuzatilgan. Natijalar moliyalashtirish manbalarining turi biznes yuritish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini va ayniqsa xalqaro moliyalashtirish hamda lizing mexanizmlaridan foydalanayotgan korxonalarda yuqori natijalar kuzatilishini tasdiqlaydi.


¹ Muallif ishlanmasi



2-rasm. Iqtisodiy omillar va gender kesimida biznes yuritish samaradorligining taqsimlanishi¹

2-rasmda kichik va oʻrta biznes subyektlarining biznes yuritish samaradorligi iqtisodiy omillar -bozor diversifikatsiyasi, raqobatbardoshlik, sanoat va texnologiya modernizatsiyasi hamda taʼminot zanjiri barqarorligi boʻyicha ayollar va erkaklar kesimida taqqoslangan. Natijalarga koʻra, koʻpchilik kuzatuvlar 60-90 ball oraligʻida jamlangan boʻlib, bu respondentlarning iqtisodiy omillarni biznes samaradorligiga sezilarli taʼsir etuvchi omillar sifatida baholaganini koʻrsatadi. Bozor diversifikatsiyasi boʻyicha ayollar guruhida median qiymat taxminan 70 ball, erkaklarda esa 75 ball atrofida shakllangan. Ayrim korxonalarda samaradorlik koʻrsatkichlari 40-50 ballgacha pasaygan boʻlsa, eng yuqori natijalar 100 ballga yaqinlashgan. Bu holat yangi bozorlarga chiqish va mahsulot assortimentini kengaytirish korxonalarining iqtisodiy natijalarini yaxshilashda muhim omil ekanligini koʻrsatadi. Raqobatbardoshlik omili boʻyicha ham koʻrsatkichlar asosan 65-85 ball diapazonida joylashgan boʻlib, ayrim respondentlarda 10-20 ball darajasidagi past baholar uchrashi korxonalar oʻrtasida raqobat imkoniyatlari turlicha ekanligini bildiradi.

¹ Muallif ishlanmasi



3-rasm. Ijtimoiy omillar va gender kesimida biznes yuritish samaradorligining taqsimlanishi¹

3-rasmda esa, biznes yuritish samaradorligining ijtimoiy kafolatlar, ish haqi barqarorligi, mehnat muhofazasi va xavfsizlik hamda xodimlar mehnat huquqlari bilan bogʻliqligi ayollar va erkaklar kesimida aks ettirilgan. Natijalarga koʻra, koʻrsatkichlarning asosiy qismi 50-80 ball oraligʻida joylashgan boʻlib, respondentlarning aksariyati ijtimoiy omillarni biznes samaradorligiga ijobiy taʼsir etuvchi muhim omillar sifatida baholagan. Ijtimoiy kafolatlar boʻyicha ayol tadbirkorlarda median qiymat taxminan 60-70 ball, erkaklarda esa 65-75 ball atrofida shakllangan. Ayrim kuzatuvlarda eng past qiymatlar 30-40 ball darajasida qayd etilgan boʻlsa, maksimal baholar 95-100 ballgacha yetgan. Ish haqi barqarorligi boʻyicha ham natijalar nisbatan yuqori boʻlib, koʻpchilik kuzatuvlar 55-80 ball diapazonida toʻplangan. Shu bilan birga, ayrim respondentlar tomonidan 20-30 ball darajasidagi baholar berilgani ayrim korxonalarda ish haqi tizimining yetarlicha barqaror emasligini koʻrsatadi.

¹ Muallif ishlanmasi

1-jadval
**Kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiy samaradorligini baholash
tizimining ko'p omilli ekonometrik tahlili¹**

Modelning umumiy statistik ko'rsatkichlari						
Tenglama	Kuzatuvlar soni	Parametrlar soni	RMSE	R²	F-statistika	p-qiymat
Moliyalashtirish manbasi	1000	6	1.226048	0.0068	1.357219	0.0381
Iqtisodiy muammo	1000	6	1.017362	0.0060	1.205968	0.0042
Ijtimoiy muammo	1000	6	1.056482	0.0093	1.859679	0.0988
Moliyalashtirish manbasi						
O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	p-qiymat	95 % ishonch oralig'i (quyi)	95 % ishonch oralig'i (yuqori)
Biznes yuritish samaradorligi	0.003	0.002	1.310	0.090	-0.001	0.007
Tashkil yil	-0.005	0.010	-0.490	0.626	-0.024	0.014
Yosh	-0.004	0.005	-0.820	0.012	-0.013	0.005
Ta'lim yillari	0.031	0.016	1.890	0.059	-0.001	0.063
Ishchilar soni	0.001	0.004	0.160	0.874	-0.007	0.008
Doimiy had (cons)	32.793	0.288	114.060	0.000	32.229	33.357
Iqtisodiy muammo						
O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	p-qiymat	95 % ishonch oralig'i (quyi)	95 % ishonch oralig'i (yuqori)
Biznes yuritish samaradorligi	0.003	0.002	1.780	0.075	-0.000	0.006
Tashkil yil	0.003	0.008	0.400	0.688	-0.013	0.019
Yosh	-0.004	0.004	-1.080	0.282	-0.012	0.003
Ta'lim yillari	0.014	0.014	1.030	0.304	-0.013	0.041
Ishchilar soni	0.002	0.003	0.600	0.052	-0.004	0.008
Doimiy had (cons)	54.937	0.239	230.280	0.000	54.469	55.406
Ijtimoiy muammo						
O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	p-qiymat	95 % ishonch oralig'i (quyi)	95 % ishonch oralig'i (yuqori)
Biznes yuritish samaradorligi	-0.001	0.002	-0.390	0.693	-0.004	0.003
Tashkil yil	0.015	0.008	1.830	0.068	-0.001	0.032
Yosh	-0.007	0.004	-1.650	0.099	-0.015	0.001
Ta'lim yillari	0.023	0.014	1.640	0.101	-0.005	0.051
Ishchilar soni	0.003	0.003	0.930	0.050	-0.003	0.009
Doimiy had (cons)	51.729	0.248	208.800	0.000	51.243	52.215

Mazkur model natijalariga ko'ra, moliyalashtirish manbasi tenglamasi umumiy jihatdan statistik ahamiyatli hisoblanadi ($F = 1.357$; $p = 0.038$). Modelning

¹ Muallif ishlanmasi

determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.0068$ ni tashkil etib, moliyalashtirish manbalaridagi o'zgarishlarning 0,68 foizi modelga kiritilgan omillar hisobiga izohlanishini ko'rsatadi. Natijalarga ko'ra, biznes yuritish samaradorligi moliyalashtirish manbalariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan ($\beta = 0.003$; $p = 0.090$). Bu biznes yuritish samaradorligi bir birlikka oshganda moliyalashtirish manbalari indeksi o'rtacha 0.003 birlikka ortishini anglatadi. Ta'lim yillari ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan ($\beta = 0.031$; $p = 0.059$), bu esa tadbirkorning bilim va malakasi oshgani sari moliyalashtirish imkoniyatlari kengayishini bildiradi. Yosh o'zgaruvchisining koeffitsiyenti manfiy ($\beta = -0.004$) bo'lib, yosh ortishi bilan zamonaviy moliyalashtirish manbalaridan foydalanish faolligi pasayishi mumkinligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy muammo tenglamasi ham statistik jihatdan ahamiyatli natijani ko'rsatgan ($F = 1.206$; $p = 0.004$). Modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.0060$ bo'lib, iqtisodiy muammolardagi o'zgarishlarning 0,60 foizi modelga kiritilgan omillar orqali izohlanadi. Biznes yuritish samaradorligi iqtisodiy muammolarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan ($\beta = 0.003$; $p = 0.075$). Bu natija biznes samaradorligi yuqori bo'lgan korxonalarda iqtisodiy muammolarga nisbatan e'tibor yuqoriroq bo'lishi bilan izohlanadi. Ishchilar soni koeffitsiyenti ham musbat qiymatga ega ($\beta = 0.002$; $p = 0.052$) bo'lib, korxona hajmi ortishi bilan iqtisodiy muammolar bilan bog'liq masalalar ko'payishini ko'rsatadi. Tashkil etilgan yil, yosh va ta'lim yillari o'zgaruvchilarining ta'siri statistik jihatdan ahamiyatli emas.

Ijtimoiy muammo tenglamasida modelning umumiy ahamiyatlilik darajasi nisbatan past bo'lsa-da ($F = 1.860$; $p = 0.0988$), ayrim omillar 10 foizlik ahamiyatlilik darajasida statistik jihatdan sezilarli natijani ko'rsatgan. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.0093$ bo'lib, ijtimoiy muammolardagi o'zgarishlarning 0,93 foizi modelga kiritilgan omillar orqali izohlanadi. Biznes yuritish samaradorligi koeffitsiyenti manfiy qiymatga ega ($\beta = -0.001$; $p = 0.693$), biroq statistik jihatdan ahamiyatli emas. Tashkil etilgan yil ($\beta = 0.015$; $p = 0.068$), yosh ($\beta = -0.007$; $p = 0.099$), ta'lim yillari ($\beta = 0.023$; $p = 0.101$) hamda ishchilar soni ($\beta = 0.003$; $p = 0.050$) ijtimoiy muammolarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ishchilar sonining ortishi mehnat munosabatlari, ijtimoiy himoya va xodimlar manfaatlari bilan bog'liq masalalarning dolzarblashishiga olib kelishini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan 1001 ta kichik va o'rta biznes subyekting iqtisodiy samaradorligi ko'p omilli ekonometrik regressiya modeli asosida baholandi. Tahlil natijalari biznes yuritish samaradorligi, tadbirkorning ta'lim darajasi va korxona hajmi moliyalashtirish imkoniyatlari hamda iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Biznes samaradorligi yuqori bo'lgan korxonalarda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengroq shakllanganligi va iqtisodiy faoliyat natijadorligi yuqoriroq ekani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari ta'lim darajasining oshishi tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashini tasdiqladi. Korxona hajmi ortishi bilan iqtisodiy va ijtimoiy boshqaruv masalalarining ahamiyati kuchayishi ham aniqlandi. Shuningdek, xalqaro

moliyalashtirish va lizing mexanizmlaridan foydalangan korxonalarda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori shakllangani kuzatildi. Olingan natijalar kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni birgalikda hisobga olish muhimligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Kichik va o'rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini muntazam baholashda ko'p omilli ekonometrik modellarni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq. Bu boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Tadbirkorlarning moliyaviy va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Bu moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish va biznes natijadorligini oshirish imkonini beradi.

3. Lizing, xalqaro moliyalashtirish va sherikchilik asosidagi investitsiya mexanizmlaridan foydalanishni rag'batlantirish korxonalarining investitsion faolligi va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

4. Korxonalarda mehnat sharoitlarini takomillashtirish, xodimlarning malakasini muntazam oshirish hamda ijtimoiy boshqaruv tizimini rivojlantirish mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikning barqaror o'sishini ta'minlaydi.

5. Hududiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishda korxonalarining moliyalashtirish imkoniyatlari, iqtisodiy natijalari va ijtimoiy ko'rsatkichlarini kompleks baholash mezonlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu resurslarni ustuvor yo'nalishlarga samarali yo'naltirish imkonini yaratadi.

6. Kelgusidagi tadqiqotlarda panel ma'lumotlar, fazoviy ekonometrik modellar va dinamik regressiya usullaridan foydalanish kichik va o'rta biznes samaradorligiga innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, eksport faoliyati va hududiy infratuzilmaning ta'sirini yanada chuqurroq baholash imkonini beradi.

Takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy samaradorligini oshirish va hududiy tadbirkorlikni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha farmon va qarorlar to'plami, Toshkent, O'zbekiston, 2023.

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining statistik to'plami 2024, Toshkent, O'zbekiston, 2024.

4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Hududiy tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot, Toshkent, O'zbekiston, 2024.

5. Michael E. Porter, Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York, NY, USA: Free Press, 1985.

6. Nazar, PhD Nazarov. "STATISTICAL RESEARCH METHODS OF BUSINESS ENTITIES IN FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN."

7. Joseph E. Stiglitz and A. Weiss, “Credit Rationing in Markets with Imperfect Information,” *American Economic Review*, vol. 71, no. 3, pp. 393-410, 1981.

8. NAZAROV, N. (2021). Analysis of business entities with the development of innovative and investment activities of entrepreneurship in free economic zones. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (10), 719-727.

9. World Bank, *Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving Access to Finance for Growth and Development*. Washington, DC, USA: World Bank, 2023.

10. United Nations Development Programme, *Human Development Report 2024: Breaking the Gridlock*. New York, NY, USA: UNDP, 2024.

11. Organisation for Economic Co-operation and Development, *Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard*. Paris, France: OECD Publishing, 2024.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**